



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI

111500, Toshkent vil. Nurafshon sh., Toshkent yo‘li ko‘chasi Qumariq mahallasi 1-uy

A.A.MAQSUDOV

Bo'ka tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Chinoz tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Olmaliq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
O'rtachirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yuqorichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Qibray tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Angren shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Nurafshon shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Oqqo'rg'on tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bo'stonliq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Toshkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Parkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Zangiota tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi



Hujjat kodi: **IR18170632**

Chirchiq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Quyichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Piskent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi

3.Oʻrnatilgan tartibda ijro uchun

Muddat: 12 April 2024

A.A.MAQSUDOV

Bo'ka tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Chinoz tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Olmaliq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
O'rtachirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yuqorichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Qibray tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Angren shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Nurafshon shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Oqqo'rg'on tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bo'stonliq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Toshkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Parkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Zangiota tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Chirchiq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Quyichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Piskent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi



3.2.Oʻrnatilgan tartibda ijro uchun

Muddat: 16 April 2024

A.A.MAQSUDOV

Bo'ka tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Chinoz tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Olmaliq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
O'rtachirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yuqorichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Qibray tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Angren shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Nurafshon shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Oqqo'rg'on tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bo'stonliq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Toshkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Parkent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Zangiota tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Chirchiq shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Yangiyo'l tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Quyichirchiq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Bekobod tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Ohangaron tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
Piskent tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi

M.S.TOSHQULOV

4.Oʻrnatilgan tartibda malumot uchun

№01/593

Z.X.Yoʻldashov



Hujjat kodi: **IR18170632**
8 April 2024

Бош бошқарма бошлиғи





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2024-yil “5” aprel

52-son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligida favqulodda vaziyatlar
kelib chiqishini oldini olish maqsadida
“Fuqaro muhofazasi” tashkil etish
to‘grisida**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 1-son buyrug‘ida belgilab berilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta‘minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda o‘zini tutish, shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, favqulodda vaziyatlarda xarakatlanish qoidalari bilan tanishtirish va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda favqulodda to‘g‘ri harakat qilishga qaratilgan tayyorgarlikdan o‘tkazish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 2024-yil 22-yanvardagi "O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha 2023-yil bajarilgan ishlar yakuni va 2024 yildagi asosiy vazifalar to‘g‘risida"gi 1-son buyrug‘i ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik markaziy apparatida fuqaro muhofazasi bo‘yicha mas‘ul Xo‘jamberdiyev Erkin Xayrullo o‘g‘liga 24-yanvar kundan Fuqaro muhofazasi bo‘yicha muhandis vazifasini bajarish yuklatilganligi inobatga olinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh

boshqarmalarida hamda tasarrufiy tashkilotlarda **5 kun muddatda** Fuqaro muhofazasi uchun mas'ul xodimni belgilash choralari ko'rilsin.

10 kun muddatda vazirlikka Fuqaro muhofazasiga mas'ul etib belgilangan xodim to'g'risidagi ma'lumot kiritsin.

4. Quyudagilar:

vazirlikning “Fuqaro muhofazasi”ni bo'yicha nizomi 1- ilovaga;

favqulodda vaziyatlarda xarakatlanish yo'riqnomasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Fuqaro muhofazasi bo'yicha muhandis (E.Xo'jamberdiyev), Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi (B.Kaxarov) va Axborot xizmati (J.Kalandarov) :

Favqullodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda mas'ul xodimlarni belgilagan holda “Fuqaro muhofazasi” mavzusida o'quv amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va tadbirlarni OAV da yoritish choralari ko'rilsin.

6. “Fuqaro muhofazasi” bo'yicha markaziy apparat binosini evakuatsiya chizmasini tayyorlatib o'rnatilsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari R.Turdiboyeva zimmasiga yuklansin.

Vazir

B.Musaev



O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining
2024- yil “5 ” aprel 52- son buyrug‘iga 1-
ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGIDA FUQARO MUHOFAZASI TUZILMALARI TO‘G‘RISIDAGI N I Z O M

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan ta‘minlash (tabellashtirish) me‘yorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida (keyingi matnlarda obyekt) fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish tamoyillarini, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tuzish tartibini, ularning tashkiliy-shtat tuzilmasini, shaxsiy tarkibini, texnika va mol-mulk bilan ta‘minlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarni, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, odamlarning hayot faoliyati sharoiti izidan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

fuqaro muhofazasi xizmati – fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlarini ta‘minlash uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash maqsadida tuzilgan funksional bo‘linmalar majmui;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta‘sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksi;

qutqaruv ishlari – favqulodda vaziyatlar hududida odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo‘lgan xavfli omillar ta‘sirini yo‘qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

qutqaruv tuzilmasi – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta‘minlangan qutqaruvchilar bo‘linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

fuqaro muhofazasi tuzilmalari – belgilangan fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarish uchun o‘z xodimlari hisobidan tashkilot tomonidan tashkil etiladigan shtatdan tashqari tuzilmalar.

fuqaro muhofazasi kuchlari – fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun tuziladigan umumiy va maxsus yo‘nalishdagi funksional va obyekt tuzilmalari.

2-bob. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining (FVDT) asosiy maqsadi va vazifalari

3. FVDTning asosiy maqsadi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta‘minlashdan iborat.

4. Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta‘minlash;

respublika hududida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

FVDTning barcha darajadagi boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta‘minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, almashish, axborot tayyorlash va berish;

aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish, shuningdek ularni va halok bo'lganlarni evakuatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan sug'urta qilishning maqbul tizimini ta'minlash.

3. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari turlari va vazifalari

5. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari (keyingi matnlarda – Tuzilmalar) tinchlik va harbiy davrdagi favqulodda vaziyatlarda, shuningdek boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarida (keyingi matnlarda – Tadbirlar) qutqaruv ishlarini olib, borish uchun tashkil etiladi. Tuzilmalar obyekt rahbariga buysunadi.

6. Tadbirlarni tuzilmalar mustaqil yoki qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek harbiy davrda joylardagi harbiy qo'mondonlik organlari bilan hamkorlikda bajaradi.

7. Tuzilmalar bo'linadi:

vazifasiga ko'ra – umumiy yo'nalishdagi (shikastlanish o'chog'ida qutqaruv ishlarini olib borish uchun) hamda xizmatlarning maxsus tadbirlarni (razvedka, sanitar posti, yong'inni o'chirish va jamoat tartibini saqlash) bajaruvchi tuzilmalariga;

bo'ysunuviga ko'ra – obyekt tuzilmalariga;

tayyorgarlik muddatiga ko'ra – yuqori tayyorgarlik (signal olingandan so'ng 6 soatdan kechikmay shay holatga keladigan) va kundalik tayyorgarlik (signal olingandan so'ng 24 soatdan kechikmay shay holatga keladigan) tuzilmalariga.

8. Tuzilmalar doimiy asosda faoliyat olib boradi. Zaruriyat paydo bo'lgan holatlarda Toshkent shahri miqiyosida vaqtinchalik (10 kundan ortiq bo'lmagan muddatga) faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar tashkil etiladi.

9. Obyektda fuqaro muhofazasi bo'yicha tadbirlarni bajarish uchun quyidagi zvenolardan iborat Fuqaro muhofazasi tuzilmalari qutqaruv guruhi tashkil etiladi:

aloqa zvenosi;

razvedka zvenosi;

qutqaruv zvenosi;

yong'in o'chirish zvenosi;

jamoat tartibini saqlash zvenosi;

sanitar posti.

Aloqa zvenosi – obyekt hududida favqulodda vaziyat xavfi tug‘ilganda yoki sodir bo‘lganda obyekt fuqaro muhofazasi boshlig‘iga, obyekt tuzilmalariga va tegishli fuqaro muhofazasi xizmatlariga xabar berish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari davomida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun jalb etilgan fuqaro muhofazasi kuchlari hamda boshqaruv organlari o‘rtasida doimiy uzluksiz aloqani ta‘minlash uchun tuziladi;

Razvedka zvenosi – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo‘lganda obyekt hududida jabrlanganlarni qidirib topish maqsadida razvedka qilish va o‘z vaqtida xabar berish ishlarini amalga oshirish uchun tuziladi;

Qutqaruv zvenosi – favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududlarda odamlarning hayotini asrab qolish uchun favqulodda vaziyatlar o‘choqlaridan jabrlanganlarni olib chiqish, shuningdek, avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun tuziladi;

Yong‘in o‘chirish zvenosi – favqulodda vaziyatlar oqibatida sodir bo‘lgan yong‘inlarni chegaralash va o‘chirish uchun tuziladi;

Jamoat tartibini saqlash zvenosi – favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududlardan aholini xavfsiz joylarga ko‘chirish, favqulodda vaziyatlar o‘choqlariga fuqaro muhofazasi kuchlarini yetkazish davomida, obyekt hududida va yig‘in punktlarida jamoat tartibini saqlashda ishtirok etish va kommendantlik xizmatini olib borish uchun tuziladi;

sanitar posti – favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududlarda sanitar-gigiyenik tadbirlarni olib borishda ishtirok etish, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni xavfsiz hududlarda joylashgan shifoxonalarga evakuatsiya qilish uchun tuziladi.

4. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish va to‘ldirish tartibi

10. Tuzilmalarning turlari va shaxsiy tarkib soni quyidagi omillardan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

obyektda yoki obyekt hududida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar;

obyektlardagi ishchi va xizmatchilar soni;

obyektlarning bajaradigan vazifalari.

11. Tuzilmalarning sonini, tarkibini va moddiy-texnik vositalar bilan ta‘minlanishi me‘yorlarini belgilash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

obyekt tuzilmalarining soni, tarkibi va moddiy-texnik vositalar bilan ta‘minlanish me‘yorlari O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda obyekt Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi;

obyekt tuzilmalarining tashkiliy funksional tuzilmasi va Favqulodda vaziyatlar hududiy va funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari Nizomning 1 va 2-illovalarida ko‘rsatilgan.

12. Tuzilmalarga obyekt ishchi-xizmatchilaridan ishga yaroqli 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar (harbiy

xizmatga majburlar, safarbarlik ko'rsatmasi bo'lgan, I, II va III guruh nogironlari, homilador ayollar va 8-yoshgacha farzandi borlar, shuningdek o'rta-maxsus, professional yoki oliy tibbiy ma'lumotga ega hamda 3 yoshgacha farzandi bor ayollar bundan mustasno) qabul qilinishi mumkin.

Tuzilmalar tarkibiga kiritilgan shaxslar avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarda hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha boshqa tadbirlarni bajarishda ishtirok etishlari majburiydir.

13. Tuzilmalarni shaxsiy tarkib, zarur texnika va moddiy-texnik vositalar bilan jamlash obyekt Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan obyekt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

14. Ta'lim muassasalari sanitar postlari shaxsiy tarkibi, davolash-profilaktika muassasalarida kichik tibbiy xodim sifatida foydalanilishi mumkin. Bunda, ta'lim muassasalari sanitar postlarini o'quv buyumlaridan tashqari boshqa tibbiy buyumlar bilan ta'minlash nazarda tutilmaydi.

15. Obyekt rahbari tashkil etilgan tuzilmalarni zamonaviy texnika, asbob-anjomlar va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlanishiga, kasbiy tayyorgarligi hamda doimiy jangovar shay holatda bo'lishlari uchun shaxsan javob beradilar.

5. Fuqaro muhofazasi tuzilmalaridan tinchlik davrida foydalanish

16. Obyekt fuqaro muhofazasi boshlig'ining qarori bilan tuzilmalardan tinchlik davrida yirik yong'inlarga qarshi kurash, tabiiy ofatlar (suv toshqinlari, zilzila va h.k.), yirik avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etishda hamda FVDT tarkibida amalga oshiriladigan boshqa tadbirlarni bajarishda (qo'mondonlik-shtab, maxsus-taktik, obyekt o'quv mashqlarini, aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash yuzasidan o'tkaziladigan barcha tadbirlarni amalga oshirishda) ham foydalaniladi.

17. Tuzilmalardan yirik yong'inlarga qarshi kurashga, tabiiy ofatlar (suv toshqinlari, zilzila va shu kabilar) oqibatlarini bartaraf etishga shaxsiy tarkib 10 kun muddatgacha jalb etiladi. Ushbu muddatni uzaytirish istisno vaziyatlarda, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining qarori bilan amalga oshiriladi.

6. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini texnika, asbob-anjom va jihozlar bilan ta'minlash

18. Tuzilmalarni avtomobil va boshqa texnikalar bilan ta'minlash, obyektida mavjud texnikalar hisobidan amalga oshiriladi. Texnikalarni ta'mirlash va qayta tiklash ishlari, obyekt hisobidan tashkillashtiriladi.

19. Obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari shtat va tabelda ko'rsatilgan boshqa turdagi moddiy-texnik vositalar bilan birinchi navbatda ta'minlanadi.

20. Tuzilmalar bilan o'quv mashg'ulotlari va yig'inlarini o'tkazishda o'quv anjomlaridan zarurat bo'lganda joriy ta'minotdagi anjomlardan foydalaniladi.

7. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibini ijtimoiy himoya qilish

21. Tuzilmalarning shaxsiy tarkibi tabiiy ofat, yirik avariya va halokatlarni hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilganda bepul oziq – ovqat, vaqtinchalik turar joy, maxsus kiyim-bosh, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish joylariga borish -kelish uchun transport bilan ta'minlanadi.

Qutqaruv ishlarini bajarishda qutqaruv ishlari boshlanishidan ular tugagunigacha o'tadigan vaqt hisobga olinadi.

O'quv yig'inlariga, fuqaro muhofazasi mashg'ulot va mashqlari uchun belgilangan vaqt kundalik jarayonda ichki mehnat tartibi bo'yicha navbatchilik jadvallari va boshqa tadbirlarga ajratilgan vaqt deb hisoblanadi.

22. Tuzilmalar tarkibidagi shaxslarga tabiiy ofat, yirik avariya va halokatlarni, o'rmon yong'inlarini hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish vaqtida asosiy ish joyidan o'rta xizmat maoshi to'lanadi, o'rindoshlik ishi bo'yicha ham o'rtacha maosh to'lanadi.

Tuzilmalar tarkibidagi shaxslarga qutqaruv ishlarini olib borishda olingan tan jarohatlari uchun hamda ularning oila a'zolariga boquvchisini yo'qotgan hollarda pensiyalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida tayinlanadi.

23. Qutqaruv, razvedka va yong'in o'chirish zvenolari a'zolarining hayoti va sog'lig'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 22-iyundagi "Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchilarining hayoti va sog'lig'ini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 166-sonli qarori asosida majburiy sug'urtalanadi.

24. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari shaxsiy tarkibini ijtimoiy himoya qilish masalalari obyekt ma'muriyati va mehnat jamoasi o'rtasida tuzilgan jamoa shartnomalarida belgilanadi.

8. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining hisobini yuritish

25. Fuqaro muhofazasi obyektlar darajasidagi boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi obyektlar ma'muriyati va ularning vakolatli tarkibiy bo'linmalarining tizimdagi faoliyati bo'yicha funksiyalari Nizomning 3-ilovasida ko'rsatilgan.

26. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining hisobi obyekt fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

9. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tayyorgarlikdan o'tkazish

27. Obyekt shaxsiy tarkibini o'qitish va tuzilmalarni tayyorgarlikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-sonli qarori asosida amalga oshiriladi:

Obyekt va tuzilmalar rahbarlari – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi institutida va qo‘mondon-shtab mashqlarini o‘tkazish davrida;

tuzilmalar shaxsiy tarkibi – obyektida, tayyorlash rejalari doirasida tegishli dasturlar bo‘yicha, shuningdek maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulot va mashqlarda.

28. Favqulodda vaziyatlar o‘choqlarida qutqaruv ishlariga bevosita jalb etiladigan quyidagi zvenolarning shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 9-iyuldagi “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida”gi 184-sonli qarori asosida majburiy tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi:

qutqaruv zvenosi;

razvedka zvenosi;

yong‘in o‘chirish zvenosi.

10. Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining shayligi

29. Tuzilmalarni shay holatga keltirish rejasi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda obyekt fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

30. Tuzilmalarning shayligini tekshirish tegishli organlar bilan kelishilgan holda quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig‘i, Favqulodda vaziyatlar vaziri va uning o‘rinbosarlari shaxsan yoki ularning topshiriqlariga asosan, boshqa shaxslar tomonidan.

31. Tuzilmalarning shayligi o‘quv mashg‘ulotlarida, fuqaro muhofazasi o‘quv mashqlarida, musobaqalarda, ko‘rik va boshqa tadbirlarda tekshiriladi.

Tuzilmalarning shayligini tekshirishda quyidagilar aniqlanadi:

tuzilmalarni tuzish bo‘yicha hisoblarning asoslanganligi;

tuzilmalarning shayligi va ularning fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etish qobiliyati;

tuzilmalarning tashkiliy tuzilmasi, obyektning ishlab chiqarish faoliyatiga, bajariladigan vazifalar hajmiga va turiga muvofiqligi;

tuzilmalarning shaxsiy himoya vositalari, texnika, asbob-ava vositalar hamda maxsus kiyim-kechak bilan ta‘minlanganligi, ularni saqlash tartibi va ulardan foydalanishga shayligi;

tuzilmalarning yig‘ini, uni belgilangan joyga yoki ishlarni bajarish, obyektga yetib borish vaqti.

Obyekt fuqaro muhofazasi boshlig‘i yillik reja asosida, tuzilmalarni belgilangan vaqtda yig‘ish va shay holatga keltirish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazib boradi.

Nazorat tekshiruvlarida tuzilmalarning shayligi quyidagicha baholanadi:

“Tayyor”:

tuzilmalarning shtati 90 % dan kam bo‘lmagan qismi jamlangan;

tuzilmalar 85 % dan kam bo‘lmagan miqdorda me‘yorda belgilangan asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta‘minlangan;

tuzilmalarning faoliyatini tashkilashtirish bo'yicha 85 % dan kam bo'lmagan zarur me'yoriy hujjatlar talab darajasida ishlab chiqilgan;

“yig'in” signali bo'yicha 85 % dan kam bo'lmagan shaxsiy tarkib va texnika belgilangan vaqtda yig'ilgan.

Agar, qayd qilingan ko'rsatgichlardan ikkitasi yoki undan ortig'i ko'rsatilganlardan kam bo'lib qolsa, baho “Tayyor emas”gacha pasaytiriladi.

“Cheklangan tayyor”:

tuzilmalarning shtati 65% kam bo'lmagan qismi jamlangan;

tuzilmalarning 65% dan kam bo'lmagan shaxsiy tarkibi o'z xizmat vazifalarini to'liq biladi;

tuzilmalar 65 % dan kam bo'lmagan miqdorda me'yorda belgilangan asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta'minlangan;

tuzilmalarning faoliyatini tashkilashtirish bo'yicha 65 % dan kam bo'lmagan zarur me'yoriy hujjatlar talab darajasida ishlab chiqilgan;

“yig'in” signali bo'yicha 65 % dan kam bo'lmagan shaxsiy tarkib va texnika belgilangan vaqtda yig'ilgan.

Agar, qayd qilingan ko'rsatgichlardan ikkitasi yoki undan ortig'i ko'rsatilganlardan kam bo'lib qolsa, baho “Tayyor emas”gacha pasaytiriladi.

“Tayyor emas”:

tuzilmalarning shtati 65% dan kam bo'lgan holda jamlangan;

tuzilmalarning 65% dan kam bo'lgan shaxsiy tarkibi o'z xizmat vazifalarini to'liq biladi;

tuzilmalar 65 % dan kam bo'lgan miqdorda me'yorda belgilangan asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta'minlangan;

tuzilmalarning faoliyatini tashkilashtirish bo'yicha 65 % dan kam bo'lgan zarur me'yoriy hujjatlar talab darajasida ishlab chiqilgan;

“yig'in” signali bo'yicha 65 % dan kam bo'lgan shaxsiy tarkib va texnika belgilangan vaqtda yig'ilgan.

11. Tabiiy ofatlarni, yirik avariya va halokatni hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish tadbirlarni moliyalashtirish

32. Muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarni moliyaviy va moddiy ta'minoti obyekt hisobidan va qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan manbalardan amalga oshiriladi.

33. Ko'rsatilgan mablag'lar yetishmaganda yoki mavjud bo'lmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rezerv fondidan ajratiladi.

**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik va vazirligining FVDT tarkibida
TASHKILIY-FUNKSIONAL TUZILMASI**

Boshqaruv organlari	Tezkor-boshqaruv organlari	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalari	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari	
<p style="text-align: center;">Respublika darajasi</p>	<p>– Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — FVV) markaziy apparati;</p> <p>– O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda — FVDT) tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy apparatlari (boshqaruv organlari)</p>	<p>– FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi;</p> <p>– FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy apparatlarining (boshqaruv organlarining) navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;</p> <p>– statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.</p>	<p>– Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari;</p> <p>– FVVga to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari;</p> <p>– qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari;</p> <p>– umumiy va maxsus vazifali tuzilmalar.</p>	<p>– Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasining mablag‘lari va davlat zaxirasi moddiy resurslari zaxirasi;</p> <p>– moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxiralari;</p> <p>– xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami;</p> <p>– O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining omborlar va zaxiralar tizimi.</p>
<p style="text-align: center;">Obyektlar darajasi</p>	<p>– obyektlarning ma‘muriyati va vakolatli tarkibiy bo‘linmalari rahbariyati, FV va FM sohasi bo‘yicha mas‘ullari.</p>	<p>– obyektlarning navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;</p> <p>– statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.</p>	<p>– qutqaruv tuzilmalari;</p> <p>– maxsus vazifali tuzilmalar;</p> <p>– fuqaro muhofazasi tuzilmalari.</p>	<p>– obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxiralari;</p> <p>– tegishli yuqori tashkilotning moliyaviy va moddiy resurslarining idoraviy zaxiralari.</p>

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha
FUNKSIYALARI**

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shartnoma asosida chet davlatlarga ishga yuborilayotgan fuqarolar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha FVV bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish.

Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish chog‘ida hayot faoliyatini tiklashga doir ishlarni bajarishga band bo‘lmagan aholini jalb etish.

Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilingan aholi bandligini ta‘minlash maqsadida ularni vaqtinchalik ish bilan ta‘minlash.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb etish.

Aholining favqulodda vaziyat zonasidan xavfsiz joylarga evakuatsiyasini tashkil etishda ishtirok etish.

Evakuatsiya qilingan aholini hisobga olishda va vaqtinchalik joylashtirishda ishtirok etish.

Tizim obyektlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish.

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi obyektlar darajasidagi boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi obyektlar ma'muriyati va ularning vakolatli tarkibiy bo'linmalarining tizimdagi faoliyati bo'yicha
FUNKSIYALARI**

1. Favqulodda vaziyatlar vazirligi FVDTning obyektlar darajasidagi boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi obyektlar ma'muriyati va ularning vakolatli tarkibiy bo'linmalari (keyingi matnlarda obyektlar boshqaruv organlari deb yuritiladi) FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi hisoblanadi.

2. Obyekt boshqaruv organlari shahar hududida quyi tizimi hamda tuman (shahar) bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri–Fuqaro muhofazasi boshlig'i favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha yillik asosiy tadbirlar rejalari asosida faoliyatini tashkil etadi.

4. Obyekt boshqaruv organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha moddiy texnik ta'minoti moliyalashtirish ko'rsatkichlari (xo'jalik) hisobidagi mablag'lar hamda qonunda ta'qiqlanmagan manbaalar orqali amalga oshiriladi.

Obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxiralari hamda tegishli yuqori tashkilotining idoraviy zaxiralari yaratiladi.

5. Favqulodda vaziyatlar vazirligi FVDT obyekt boshqaruv organlari quyidagi tizim va tarmoqlardan iborat bo'ladi:

Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv shtabi;

Ko'chirish komissiyasi;

Obyekt barqaror ishlashini ta'minlash komissiyasi;

Obyektlarning navbatchi-dispetcherlik xizmatlari;

Statsionar (turg'un) va harakatdagi boshqaruv punktlari;

Qutqaruv tuzilmalari;

Maxsus vazifali tuzilmalar;

Fuqaro muhofazasi tuzilmalari.

6. Obyektlar boshqaruv organlari kuch va vositalari maskanidagi favqulodda vaziyatlarda boshqaruv shtabi, komissiyalari, fuqaro muhofazasi tuzilmalari, hududiy bo'limlari favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish shtablari fuqaro muhofazasi tuzilma va guruhlaridan iborat bo'ladi.

7. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar yoki sodir bo'lgan favqulodda vaziyatning ko'lamlaridan kelib chiqib, faoliyat ko'rsatishi bo'yicha kundalik faoliyat, yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlaridan biri belgilangan tartibda o'rnatiladi.obyektlarning navbatchi-dispetcherlik xizmatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining
2024- yil “5 ” aprel 52- son buyrug‘iga 2-
ilova

YO‘RIQNOMA

Dunyo miqyosida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sonining o‘sib borayotganligi, terrorchilik-qo‘poruvchilik harakatlarining sodir etilayotganligi aholining bunday vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlik darajasini yuqori qutarishni taqozo etadi. Respublikamizda ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremistik guruxlar tomonidan puxta qo‘riqlanmaydigan ijtimoiy soha ob‘ektlari, maktabgacha ta‘lim muassasalari va umumta‘lim maktablariga hujum qilib u yerdagilarni garovga olish xollari dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatildi. Ushbu xodisalar oqibatida yuzlab odamlar jabr ko‘rdi. Qurbonlar berildi. Eng achinarlisi, qurbon bo‘lganlar orasida yosh bolalar ham bor. Demak, favqulotda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash maktabgacha ta‘lim muassasalari va maktablardan boshlanishi zamon talablaridan biridir.

Aholini favqulotda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulotda vaziyatlardan mukofaza qilish to‘g‘risida", **"Fuqaro muxofazasi to‘g‘risida"**, **"Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"**gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997-yil 23-dekabrda qabul qilingan 558-sonli **"O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida"**, 1998-yil 7-oktyabrdagi 427-sonli "O‘zbekiston Respublikasi axolisini favqulotda vaziyatlardan muxofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida"gi qarorlari bilan tartibga solinadi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi rahbarlari va mutaxassislarini Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida, malaka oshirish muassasalarida, kurslarda, maxsus o‘quv-uslubiyot markazlarida va ish joyida amalga oshiriladi". O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri - Fuqaro muxofazasi boshlig‘ining

2006-yil 31-dekabrda 10-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining boshqaruv organlari, kuchlari va respublika aholisini tayyorlash bo‘yicha 2007-yil uchun tashkiliy kursatmasiga muvofiq aholini favqulotda vaziyatlarda qo‘poruvchilik- terrorchilik xurujlari sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha idora, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda ham tashkil etiladi.

Favqulodda vaziyatning oldini olish tadbirlari

Vazirlik vaziri fuqaro muxofazasi boshlig'i xisoblanadi. Uning kundalik faoliyati davomida xavfsizlikning tartib-qoidalariga o'z vaqtida rioya qilishi va qo'l ostidagilardan ham talab qilishi ko'p hollarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga olib keladi.

Favqulodda vaziyatlar havfi tug'ilgan yoki yuz bergan vaqtdan boshlab to uning oqibatlarini bartaraf etuvchi maxsus gurux yetib kelguniga qadar bo'lim rahbari unga ishonib topshirilgan jamoaning havfsizligini tashkil etish bo'yicha to'la javobgar shaxs hisoblanadi. Maxsus gurux yetib kelganidan favqulotda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'z vakolatlarini gurux, rahbariga topshiradi va o'tkazilgan ishlar yuzasidan axborot beradi.

Vazirlik boshlig'ining kundalik vazifalari:

1. Havfsizlik jumladan, yong'in xavfsizligi talablariga jiddiy yondashish.
2. Bo'lim binosida begonalarning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.
3. Xodimlar va ishchilarning favqulotda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini amalga oshirish.
4. Zaruriyat tug'ilganda ishchi va xodimlar evakuatsiyasini tashkil etish (yilning issiq vaqtida bo'lim xovlisiga kun sovuk bo'lsa avvaldan kelishilgan joyga) xamda evakuatsiya uchun mas'ul xodimlar axborotini eshitadi.
5. Bino ichida odamlar qolgan-qolmaganligini tekshirishni tashkil etadi.
6. Jarohatlangan bo'lsa, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish.
7. Energiya ta'minotini o'chirish (yong'in havfsizligi signalizatsiyasidan tashqari).
8. Begonalarning bino ichiga kirishlariga yo'l qo'ymaslik.
9. Ichki ishlar xodimlari yetib kelganiga qadar muassasa binosini qo'riqlashni tashkil etish.
10. Tezkor gurux (qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar, ichki ishlar, tez yordam va x.k.)ni kutib olish va yuzaga kelgan vaziyat amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot berish.
11. Gurux a'zolariga qo'lidan kelgan barcha yordamni ko'rsatish va ularning ko'rsatmalariga amal qilish.

1. Harakat rejasiga:

- a) chiqish eshiklari va yong'in gidrantlari joylashgan yerlar ko'rsatilgan maktab binosining bosh rejas;
- b) Bo'lim binosining har bir qavatida joylashgan xonalar, yer to'la va chordoqlar rejas (unda xonalardan qanday maqsadlarda foydalanilishi ko'rsatib qo'yiladi):
- v) har bir xona uchun javobgar shaxslarning ro'yxati ilova qilinadi

2. Rejada:

- a) evakuatsiya o'tkaziladigan bo'lsa, signal kim tomonidan va qanday tartibda berilishi;
- b) zaxira eshiklarni kim ochishi;
- v) ishchi va xizmatchilar kim rahbarligida binodan olib chiqilishi, ular to'planadigan joy ishchi va xodimlar ro'yxatini tekshirib chiqish va bo'lim rahbariga axborot berish vaqti;
- g) Bo'lim rahbarining evakuatsiya natijalari to'g'risidagi axborotni qabul qilib olish joyi;
- d) tezkor gurux (qutkaruvchilar, o't o'chiruvchilar, militsiya va x.k.) yetib kelguniga qadar bo'lim binosini quriqlash kim tomonidan amalga oshirilishi;
- ye) tezkor guruxni kim kutib olishi va yuzaga kelgan vaziyat to'g'risida axborot berishi aniq ko'rsatilishi kerak.

Vazirlik boshlig'ining favqulodda vaziyatlar havfi tug'ilgan va sodir bo'lgan vaqtdagi harakatlar ketma-ketligi

1. Kerakli organlarga qo'ng'iroqqilib habar berish:
 - texnogen va tabiiy favqulotda vaziyatlarda va yong'inda-101; 1050, 71-212-69-82, 71-212-69-83, 71-212-69-84,
 - terrorchilik harakatlarida - 102; 1050, 101, 71-212-69-82, 71-212-69-83, 71-212-69-84,
2. Xodimlarga xabar berish (qanday tartibda berilishi oldindan kelishib olinadi va o'quv mashg'ulotlarida barchata e'lon kilinishi lozim).
3. Yuzaga kelgan vaziyatga baho berish undan to'g'ri xulosa chiqargan holda oqilona qaror qabul qilish.
4. Zaruriyat tug'ilganda xodimlar evakuatsiyasini tashkil etish (yilning issiq vaqtda bo'lim xovlisiga kun sovuq bo'lsa avvaldan kelishilgan joyga) hamda evakuatsiya uchun mas'ul xodimlar axborotini eshitish.
5. Bino ichida odamlar qolgan-qolmaganligini tekshirishni tashkil etish.
6. Jaroxatlangan bo'lsa, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish.
7. Energiya ta'minotini o'chirish (yong'in havfsizligi signalizatsiyasidan tashqari).
8. Xodimlar va begonalarining bino ichiga kirishlariga yo'l qo'ymaslik.
9. Militsiya xodimlari yetib kelguniga qadar boshqarma binosini qo'riqlashni tashkil etish.
10. Tezkor guruxni (qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar, militsiya, tez yordam va x.k) ni kutib olish va yuzaga kelgan vaziyat, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot berish.
11. Guruh, a'zolariga qo'lidan kelgan barcha yordamni ko'rsatish va ularning ko'rsatmalariga amal qilish.

Vazirlik xodimlarining favqulodda vaziyatlardagi harakatlari

1. Zudlik bilan bo'lim boshlig'iga yoki uning o'rni bosuvchi shaxsga yuzaga kelgan havf yoki favqulodda vaziyat to'g'risida habar berish.

2. Yuzaga kelgan sharoitdan va favqulodda vaziyat turidan kelib chiqib xodimlarni havfsiz joylarni egallashlarini tashkil etish.

3. Evakuatsiya o'tkaziladigan bo'lsa, xodimlarni tartib saqlagan va uyushgan holda guruxdan maxsus belgilangan joyga olib chiqish. Guruhda hech kim qolmaganligini tekshirish.

4. Xodimlarni maxsus ajratilgan joyga tuplagach, yuklama qilish

5. Sarosimaga tushgan, qo'rqib ketgan va vaximaga berilgan xodimlarni tinchlantirish ularga ruxiy madad berish.

6. Bo'lim boshlig'ining ko'rsatmalariga amal qilish.

7. Tuzilmalar tarkibida harakat qilish.

8. Favqulodda vaziyat to'g'risida xabardor bo'lsa, tezlikda boshqarma rahbariyatini habardor qilish,

9. Yuz bergan favqulodda vaziyat xususiyatidan kelib chiqib, sarosimaga berilmasdan «MTO'M» olingan bilim asosida oqilona harakatlarni amalga oshirish;

10. Binodan chiqayotganda shovqin ko'tarmaslik, chopmaslik, gurux raxbari ko'rsatmalariga amal qilish.

11. Maxsus belgilangan joyga yig'ilgach, avvaldan gurux uchun belgilangan joyni egallash va tartib saqdash.

12. Bo'lim raxbariyati va gurux raxbarlari ruxsatisiz ushbu joyni tark etmaslik, o'zboshimchalik bilan harakat qilmaslik.